

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
3-SONLI ICHKI KASALLIKLAR KAFEDRASI**

«TASDIQLAYMAN»  
Toshkent tibbiyot akademiyasi  
O'quv ishlari bo'yicha prorektor,  
professor Baymurodov SH.A.



2022 y.

**KLINIK KARDIOLOGIYA MODULINING ISHCHI O'QUV DASTURI**

**3-KURS UCHUN**

**Ta'lif sohasi:** 510000 - Sog'liqni saqlash

**Mutaxassislik:** 5A510105 - Kardiologiya

Toshkent – 2022

Modulning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi  
2022 yil " " -sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "**Yurak-qon tomir**  
**tizimi funksional anatomiyasi va tashxislash**" modul dasturi asosida tayyorlangan.

**Tuzuvchilar:**

Raximova M.E.

- Toshkent tibbiyot akademiyasi 3-son ichki kasalliklar kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Turaqulov R.I.

- Toshkent tibbiyot akademiyasi 3-son ichki kasalliklar kafedrasi katta o'qituvchisi, t.f.d.

**Taqrizechilar:**

Nurillaeva N.M.


- Toshkent tibbiyot akademiyasi 1-son ichki kasalliklar kafedrasi mudiri, dotsent, t.f.d.

Xamidullaeva G.A.

- Respublika kardiologiya markazi katta ilmiy xodimi, t.f.d.

Modulning ishchi o'quv dasturi Toshkent tibbiyot akademiyasi Kengashida  
muxokama etilgan va tasdiqlangan (2022 yil " " \_\_\_\_\_ dagi " " -sonli  
bayonnomasi).

3-son ichki kasalliklar kafedrasi  
mudiri, t.f.d., professor




Ahmedov H.S.

Magistratura bo'limi boshlig'i



Imamov A.A.

O'quv uslubiy bo'lim boshkig'i



Azizova F.X.

## **1. O‘quv fani o‘qitilishi bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar.**

“Klinik kardiologiya” fani magistr talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalalarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yidagi talablar qo‘yiladi. **Talaba:**

- orttirilgan va tug‘ma yurak nuqsonlari epidemiologiyasi, yurak nuqsoni bo‘lgan bemorlarni tashxislash va davolashning zamonaviy usullari;
- perikard kasalliklarini o‘rganishning zamonaviy holati;
- infektsion endokarditni o‘rganish bo‘yicha o‘tkaziladigan tekshirishlar va ularning natijalari;
- ichki a’zo kasalliklarida yurak qon-tomir tizimi xolatini o‘rganish bo‘yicha o‘tkaziladigan tekshirishlar;
- tibbiyot hujjatlarini to‘g‘ri olib borish ***haqida tasavvurga ega bo‘lishi***;
- o‘mrov osti kateterini qo‘yishni;
- vaqtinchalik kardiostimulyator o‘rnatishni;
- defibrillyatsiya o‘tkazishni;
- plevral bo‘shtlig‘ini punktsiya qilishni;
- invaziv davolash usullarini;
- surunkali revmatik yurak kasalligi etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinikasi, tashxislash va davolash standartlarini;
- mitral, aortal, uch tabaqali va o‘pka arteriyasi qopqog‘i nuqsonlari, ko‘p qopqoqli yurak nuqsonlari, kattalarda tug‘ma yurak nuqsonlarini tashxislash va davolash standartlarini;
- perikard kasalliklari etiopatogenezi, zamonaviy tasnifi, klinikasi, davolash va tashxislash standartlarini hamda profilaktikasini;
- birlamchi va ikkilamchi o‘pka gipertenziyasi etiologiyasi, rivojlanish mexanizmlarini;
- o‘pka-yuragi rivojlanishi bilan kechuvchi kasalliklar, o‘pka gipertenziyasi klinikasi, tashxislash va davolash standartlarini;
- o‘pka arteriyasi tromboemboliyasini tashxislash va davolash standartlarini;
- infektsion endokardit etiologiyasi, patogenezi, zamonaviy tasnifi, klinikasi, tashxislash va davolash standartlarini hamda profilaktikasini;
- endokrin kasalliklarda (gipotalamo-gipofizar tizimi, qalqonsimon bez va buyrak usti bezi kasalliklari, semizlik, klimakterik sindrom) yurak qon-tomir tizimi holatini;
- qandli diabetda yurak qon-tomir tizimi holatini;
- hazm a’zolari kasalliklarida (simptomatik gastroduodenal yaralar, nospetsifik yarali kolit, surunkali xoletsistit, o‘t-tosh kasalligi, vitamin yetishmovchiligidagi miokard shikastlanishida) yurak qon-tomir tizimi holatini;
- nafas a’zolari kasalliklarida yurak qon-tomir tizimi holatini, yurak kasalliklari asosida gospital va kasalxonadan tashqari pnevmoniylar rivojlanish xususiyatlari va

klinikasini, infarkt-pnevmoniyaning rivojlanish xususiyatlari va tashxislashni, ko'ks oralig'i kasalliklari va jarayonlarni perikardga tarqalishini;

– buyrak kasalliklarida (glomerulonefropatiya, nefrotik sindrom, o'tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligi) yurak qon-tomir tizimi holatini, surunkali dializ fonida yurak faoliyatini korrektsiyalashni;

– homiladorlikda yurak qon-tomir tizimi holatini;

– qariyalarda yurak qon-tomir tizimi holatini;

– yurakning kam uchraydigan kasalliklari (Lenegra kasalligi, yurak o'smalari, Marfan kasalligi, yurak va tomirlar rivojlanishida kam uchraydigan nuqsonlar)ni **bilishi va ulardan foydalana olishi**;

- shifokorlar etikasi va tibbiyot denotologiyasiga amal qilish;

– yangi kelgan bemorni kasallik tarixini to'ldirish, tekshiruv va davolash rejasini tuzish;

– davolash, tashxislash, tibbiy xujjatlarni olib borish, bemorlarni dinamikada kuzatish, klinik, yakuniy tashhis qo'yish, kasalxonadan chiqish hujjatlarini to'ldirish;

– ichki a'zolar asbobiylar tekshirishlar natijalarini tahlil qilish;

– o'tkir koronar sindromda tez yordam tadbirlarini o'tkazish;

– o'tkir yurak yetishmovchiligi va shok holatlaridan chiqarish;

– yurak tashqi massajini o'tkazish **ko'nikmalariga ega bo'lishi** zarur.

Magistratura ixtisosligiga qo'yiladigan muayyan talablar kadrlar buyurtmachilarining talablari va ushbu mutaxassislik bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari hisobga olingan holda oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi.

## 2. Ma'ruza mashg'ulotlari.

Fan bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

## 3. Seminar mashg'ulotlari

### 3.1. KLINIK KARDIOLOGIYA FANI bo'yicha seminar mashg'ulotlari tematikasi

Nº	Seminar mavzulari	soat	kredit
1	Yurak revmatik kasalligi. Epidemiologiyasi. Etiologiyasi. Patofiziologiyasi. Patomorfologiyasi. Tasnifi. Klinikasi. Tashxisiy mezonlari.	4	
	Yurak revmatik kasalligi. Qiyoziy tashxislash. Zamonaviy tekshirish usullari. Nomedikamentoz va medikamentoz davolash. Profilaktikasi.	4	1
2	Mitral qopqoq kasalliklari. Tasnifi. Mitral qopqoq yetishmovchiligi. Mitral stenoz. Mitral stenoz va mitral qopqoq yetishmovchiligining birga kelishi. Mitral qopqoq prolapsi. Mitral nuqsonlarni zamonaviy	4	

	tashxislash va davo standartlari.		
	Aortal qopqoq kasalliklari. Aortal stenoz. Aortal qopqoq yetishmovchiligi. Aortal qopqoq yetishmovchiligi va aorta stenozining birga kelishi. Etiologiyasi, patogenezi, klinik manzarasi, zamonaviy tashxislash, asorati va prognozi. O'tkir aortal yetishmovchilik. Kelib chiqish mexanizmi. Aortal nuqsonlarni zamonaviy tashxislash va davo standartlari.	4	
3	Uch tabaqali qopqoq kasalliklari. Uch tabakali qopqoq yetishmovchiligi. Trikuspidal stenoz. Zamonaviy tashxislash va davolash standartlari.	4	
	O'pka arteriyasi qopqoqchasi kasalliklari. O'pka arteriyasi qopqoqchasi yetishmovchiligi. O'pka arteriyasi stenozi. Zamonaviy tashxislash va davolash standartlari.	4	
4	Yurak va qon –tomir tizimining tug‘ma nuqsonlari. Yurak qon-tomir tizimini rivojlanishidagi murakkab anomaliyalari. Yurak tug‘ma nuqsonlari tasnifi. Gemodinamika. Ochiq arterial (Botallov) yo‘lak. Bo‘lmachalar va qorinchalararo to‘sinq nuqsoni. Lyutembashe sindromi.	4	1
	Fallo triadasi va tetradasi. Aorta koarktatsiyasi. Ebshteyn anomaliyasi. Eyzenmenger sindromi. Eeyzenmenger kompleksi. Ochiq atriventrikulyar kanal. Dekstrakardiya. Yurak tug‘ma nuqsonlari profilaktikasi	4	
5	Yurakning ko‘p qopqoqchali shikastlanish kasalliklari. Yurakning ko‘p qopqoqcha shikastlanish kasalliklarini zamonaviy tashxislash va davolash. Profilaktika birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi.	4	
	Perikard kasalliklari, klinik morfologik tasnifi va patogenezi. Quruq perikardit - etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinikasi, diagnostikasi, differentials tashxisi, davolash, profilaktikasi.	4	
6	Konstriktiv perikardit - etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinikasi, tashxislash, qiyosiy tashxisi, davolash, profilaktikasi.	4	1
	Ekssudativ perikardit - etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinikasi. Tashxislash, differentials tashxisi, davolash, profilaktikasi.	4	
7	Perikarditni davolash. Perikardit oqibatlari. Perikardiotsentez texnikasi. Perikarditni jarroxlik yo‘li bilan davolash.	4	
	O'pka gipertenziyasi. O'pka gipertenziyasi tasnifi. Birlamchi o'pka gipertenziyasi. Ta'rifi. Etiologiyasi. Rivojlanish mexanizmlari. Klinikasi. Tashxislash va davolash	4	
8	Birlamchi va ikkilamchi o'pka gipertenziyasi. Ta'rifi. Etiologiyasi. Rivojlanish mexanizmlari. Klinikasi. Tashxislash va qiyosiy tashxislash.	4	1
	Birlamchi va ikkilamchi o'pka gipertenziyasi. Zamonaviy davolash tamoyillari. Prognozi. Profilaktikasi	4	
9	O'pkali yurak. Tasnifi. Klinika. Tashxislash va qiyosiy tashxislash. Davolash. Profilaktika va reabilitatsiya.	4	

	O‘pka arteriyasi tromboemboliyasi. Epidemiologiyasi. Etiologiyasi va xavf omillari. Patogenezi. Klinik belgilari. Laborator-asbobiylar tashxislash.	4	
10	O‘pka arteriyasi tromboemboliyasi. Qiyosiy tashxislash. Davolash. O‘pka arteriyasi tromboemboliyasida rentgenendovaskulyar jarroxlik amaliyoti. Profilaktika.	4	
	Infektsion endokardit. Etiologiyasi, rivojlanish mexanizmlari, tasnifi, klinik va biokimyoviy tashxislash, katta va kichik tashxisiy mezonlari	4	
11	Infektsion endokarditning kechishi. Birlamchi va ikkilamchi infektsion endokarditlar klinik kechishining o‘ziga xosligi. Qariyalarda, narkomanlarda, protezlangan klapanli va yurak tug‘ma nuqsoni bo‘lgan bemorlarda kechish xususiyatlari.	4	1
	Infektsion endokarditning asoratlari. Infektsion endokardit va isitmada qiyosiy tashxislash Prognozi.	4	
12	Infektsion endokarditni davolash. Antibiotiklar bilan davolash sxemalari. Operativ davoga ko‘rsatmalar. Infektsion endokarditning birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi.	4	
	Ichki a’zolar kasalliklarida YuQTT xolati. Endokrin kasalliklarida yurak-qon tomir tizimi xolati. Qandli diabet fonida yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini kechishi	4	
13	Endokrin kasalliklarida yurak-qon tomir tizimi xolati. Gipotireozda yurak-qon tomir tizimining o‘zgarishlari. Tireotoksik yurak.	4	
	Nafas olish tizimi kasalliklarida yurak-qon tomir tizimining xolati. Biriktiruvchi to‘qima tizimli kasalliklarida yurak-qon tomir tizimi patologiyasi	4	
14	Buyrak kasalliklarida yurak-kon tomir tizimi xolati. Yurak qon-tomir kasalliklari bilan og‘igan bemorlarda surunkali buyrak kasalligini tashxislash. SBK davolashning tamoyillari.	4	1
	Oshqozon-ichak traktining zararlanishlarida yurak-qon tomir kasalliklarini davolash xususiyatlari. YuQT kasalliklarida dietologiya asoslari. Sog‘lom turmush tarzi tamoyillari	4	
15	Qon kasalliklarida yurak-kon tomir tizimi xolati. Kardiologning amaliyotida tserebrovaskulyar kasalliklar. Insulbtlar.	4	
	Yurak-qon tomir patologiyalari fonida kognitiv buzilishlarni oldini olish, tashxis qo‘yish, bemorlarni olib borish	4	
16	Qariyalarda yurak qon- tomir tizimi holati - fiziologik o‘zgarishlarning xususiyatlari. YuKTT kasalliklari bilan og‘igan keksa yoshdagи bemorlarni tashxislash, olib borish va davolashning o‘ziga xosligi.	4	1
	Keksa yoshdagи bemorlarda komorbid kasalliklar fonida yurak qon-tomir tizimi kasalliklarining klinik kechishi xususiyati, bemorlarni olib borish taktikasi. Reabilitatsiya	4	

17	Xomilador ayollarda yurak-qon tomir tizimining holati. Xomiladorlar surunkali gipertoniysi, gestatsion gipertoniya, preeklampsiya, eklampsiya klinikasi, tashxislash, olib borish taktikasi. Xomiladorlarda yurak qon - tomir kasalliklarini davolashga zamonaviy yondashuv.	4	
	Iqlim sharoitining va tashki muxit salbiy omillirining yurak qon - tomir tizimi xolatiga ta'siri	4	
18	Kardioonkologiya. Yurak qon-tomir tizimi kasalligi bilan onkologik bemorlarni olib borish. Yurak o'smasi.	4	
	Yurakning kam uchraydigan kasalliklari	4	
19	Yurak-qon tomir kasalliklari bilan og'igan bemorlar reabilitatsiyasi va mehnatga layoqatliliginin baholash. Somnologiya asoslari, uyqu buzilishlarini tashxislash va davolash, yurak-qon tomir kasalliklari sababli jarroxlik amaliyotini o'tkazgan bemorlar reabilitatsiyasi.	4	
	Kardioreabilitatsianing tashkiliy jixatlari. Jismoniy reabilitatsiya. Davolash mashqlarining samaradorligi. Yurakda operatsiyadan keyin davolovchi jismoniy tarbiya. YuQTKning turli kasalliklarida salomatlik mакtablari	4	1
20	Fizioterapiya va davolovchi jismoniy tarbiya. Fizioterapevtik xizmatning maqsadi va tuzilishi. Fizioterapiya va kurort terapiyasining nazariy asoslari.	4	
	Yurak qon - tomir tizim kasalliklari bilan og'igan bemorlarni davolashda parxezni ahamiyati. Sog'lom turmush tarzi tamoyillari. Yurak-qon tomir kasalliklari bo'lgan bemorlarni ambulator kuzatuvi. Ixtisoslashgan markazlarda va ambulatoriya xizmatini tashkil qilish Yurak operatsiyasidan keyin ambulatoriya kuzatuvi	4	
	3 kurs uchun Ja'mi 160 soat		8

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akadem. guruhg'a alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, "Keys-stadi" texnologiyasi ishlataladi, keyslar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurulmalari yordamida uzatiladi. Seminar mashg'ulotlari tasdiqlangan reja asosida o'tkaziladi va magistralar bilimini nazorat qilishning reyting tizimi asosida baholanadi.

### 3.2. SEMINAR MASHG'ULOTLARI REJASI

**66-mavzu. "Yurak revmatik kasalligi. Epidemiologiyasi. Etiologiyasi. Patofiziologiyasi. Patomorfologiyasi. Tasnifi. Klinikasi. Tashxisiy mezonnari. Qiyosiy tashxislash. Zamonaviy tekshirish usullari. Nomedikamentoz va medikamentoz davolash. Profilaktikasi".**

Yurak revmatik kasalligi. O'rganish tarixi. Epidemiologiyasi. Etiologiyasi. Patofiziologiyasi. Patomorfologiyasi. Tasnifi. O'tkir revmatik isitmaning ta'rifi.

Yurak surunkali revmatik kasalligi tasnifi. Klinikasi. O'tkir va surunkali revmatik jarayonning kechish xususiyatlari. Bolalarda, qariyalarda, homiladorlarda kechish xususiyatlari. Laborator-asbobiy tekshirishlarda tashxisiy mezonlari. Quyidagi kasalliklar bilan qiyosiy tashxisi: reaktiv artrit, yuvenil revmatoid artrit, gemorragik vaskulit, norevmatik miokardit, infektsion endokardit, NTSD, miokadriodistrofiyalar, mitral qopqoqchalar prolapsi. Davolash. Profilaktikasi.

**67-mavzu. “Mitral qopqoq kasalliklari. Tasnifi. Mitral qopqoq yetishmovchiligi. Mitral stenoz. Mitral stenoz va mitral qopqok yetishmovchiligining birga kelishi. Mitral qopqoq prolapsi. Aortal qopqoq kasalliklari. Aortal stenoz. Aortal qopqoq yetishmovchiligi. Aortal qopqoq yetishmovchiligi va aorta stenozining birga kelishi. Etiologiyasi, patogenezi, klinik manzarasi, zamonaviy tashxislash, asorati va prognozi. O'tkir aortal yetishmovchilik. Kelib chiqish mexanizmi. Mitral va aortal nuqsonlarni zamonaviy tashxislash va davo standartlari”.**

Mitral klapan yetishmovchiligi etiologiyasi, gemodinamik o'zgarishlarning patofiziologiyasi, patologik anatomiyası, klinik variantlari (ikkilamchi mitral yetishmovchilik, revmatik mitral yetishmovchilik; YuIK dagi mitral yetishmovchilik, mitral klapan porlapsi); Revmatik mitral yetishmovchilik klinik manzarasi, fizikal ma'lumotlar, asbobiy tashxislash: noinvaziv, invaziv; tashxislashdagi xatolik va qiyinchiliklar, asoratlari va prognozi. Mitral qopqoqchalar prolapsi, umumiylar ma'lumotlar, patogenezi, klinikasi, gemodinamikasi, asbobiy tashxislash (EKG, ExoKG), mitral qopqoqchalar prolapsi bilan kechadigan irsiy kasalliklarning belgilari, davolash taktikasi. Mitral stenoz etiologiyasi, patofiziologiyasi, klinik manzarasi, fizikal ma'lumotlar, asbobiy tashxislash: noinvaziv, invaziv, tashxisi va qiyosiy tashxisi, asoratlari va prognozi. Mitral stenoz va mitral qopqoqchalar yetishmovchiligining birga kelishi.

Aortal stenoz etiologiyasi, patologik anatomiyası, patofiziologiyasi, klinik manzarasi, fizikal ma'lumotlar, instrumental ma'lumotlar: noinvaziv (EKG, rentgen, Exo-KG, Doppler-ExoKG); invaziv (yurak kateterizatsiyasi, koronarografiya), qiyosiy tashxisi, asorati va prognozi. Aortal stenozni davolash : konservativ va xirurgik (aortal klapanni protezlash, ballonli valvuloplastika).

Aortal qopqoq yetishmovchiligi etiologiyasi, patologik anatomiyası, patofiziologiyasi, klinik manzarasi, kechishi va prognozi. Asbobiy ma'lumotlar, tashxislashda kuzatiladigan xato va qiyinchiliklar, O'tkir aortal yetishmovchilik: kelib chiqish mexanizmi, diagnostikasi, davolash taktikasi. Aortal qopqoq yetishmovchiligi va aorta stenozining birga kelishi. Zamonaviy tashxislash va davo standartlari.

**68-mavzu. “Uch tabaqali qopqoq kasalliklari. Uch tabakali qopqoq yetishmovchiligi. Trikuspidal stenoz. O'pka arteriyasi qopqoqchasi kasalliklari. O'pka arteriyasi qopqoqchasi yetishmovchiligi. O'pka arteriyasi stenozi. Zamonaviy tashxislash va davolash standartlari”.**

Uch tavakali qopqoqcha yetishmovchiligining etiologiyasi, gemodinamikasi, patofiziologiyasi, klinik manzarasi, diagnostikasi: noinvaziv va invaziv, qiyosiy tashxisi, kechishi va oqibati, davolash taktikasi. Trikuspidal stenoz, etiologiyasi, patofiziologiyasi, klinik manzarasi, gemodinamikasi, kechishi va prognozi, tashxislash: noinvaziv va invaziv, tashxislashda kuzatiladigan qiyinchiliklar, davolash

tamoillari. O'pka arteriyasi qopqoqchalari yetishmovchiligi: etiologiyasi, o'tkir va surunkali yetishmovchilikning patofiziologiyasi, fizikal tashxislash. Asbobiy tekshirish usullari: noinvaziv, invaziv; davolash taktikasi. O'pka arteriyasi stenozi: etiologiyasi, patofiziologiyasi, klinikasi, gemodinamikasi va fizikal ma'lumotlar. Asbobiy usullar yordamida tashxislash: noinvaziv, invaziv; davolash taktikasi.

**69 -mavzu.** “**Yurak va qon –tomir tizimining tug‘ma nuqsonlari. Yurak qon-tomir tizimini rivojlanishidagi murakkab anomaliyalari. Yurak tug‘ma nuqsonlari tasnifi. Gemodinamika. Ochiq arterial (Botallov) yo‘lak. Bo‘lmachalar qv qorinchalararo to‘sinq nuqsoni. Lyutembashe sindromi. Fallo triadasi va tetradiasi. Aorta koarktatsiyasi. Ebshteyn anomaliyasi. Eyzemenger sindromi. Eyzemenger kompleksi. Ochiq atriventrikulyar kanal. Dekstrakardiya. Yurak tug‘ma nuqsonlari profilaktikasi”.**

Yurak tug‘ma nuqsonlari tasnifi. Yurak tug‘ma nuqsonlari bo‘lgan bemorlarda qon aylanishi yetishmovchiligi natijasida organizmda sodir bo‘ladigan asosiy patofiziologik va morfologik o‘zgarishlar. Ochiq arterial (Botallov) yo‘lak, bo‘lmachalar va qorinsalararo to‘sinq nuqsoni. Lyutembashe sindromi. Fallo triadasi va tetradiasi, Aorta koarktatsiyasi, Ebshteyn anomaliyasi, Eyzemenger kompleksi. Ochiq atriventrikulyar kanal. Dekstrakardiya. Yurak tug‘ma nuqsonlari profilaktikasi, invaziv va noinvaziv davolash.

**70-mavzu.** “**Yurakning ko‘p qopqoqchali shikastlanish kasalliklari. Yurakning ko‘p qopqoqcha shikastlanish kasalliklarini zamonaviy tashxislash va davolash. Profilaktika birlamchi, ikkilamchi, uchlamlamchi. Perikard kasalliklari, klinik morfologik tasnifi va patogenezi. Quruq perikardit - etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinikasi, diagnostikasi, differentsial tashxisi, davolash, profilaktikasi”.**

Yurakning ko‘p qopqoqchali shikastlanish kasalliklari. Yurakning ko‘p qopqoqcha shikastlanish kasalliklarini zamonaviy tashxislash va davolash. Mitro-aortal stenoz. Mitral stenozning aortal yetishmovchilik bilan birga kelishi. Mitral yetishmovchilikning aortal yetishmovchilik bilan birga kelishi. Mitral yetishmovchilik va aortal stenoz. Mitro-aortal-trikuspidal stenoz. Nuqsonlardagi gemodinamik buzilishlarn korrektiyalash. O’tkir va surunkali mitral yetishmovchilikni davolash. Mitral stenozni davolash: konservativ; xirurgik. Aortal stenozni davolash: konservativ, xirurgik. Surunkali aortal yetishmovchilikni davolash: konservativ, xirurgik. Yurakning ko‘p qopqoqchalari kasalliklarini davolash: ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalar.

Perikard kasalliklari tasnifi. Perikarditlar etiologiyasi, patologik anatomiysi, gemodinamik o‘zgarishlar patofiziologiyasi, o’tkir quruq perikardit. Klinikasi, diagnostikasi (laborator ma'lumotlar, EKG, ExoKG), qiyosiy tashxisi.

**71-mavzu.** “**Konstriktiv perikardit - etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinikasi, tashxislash, qiyosiy tashxisi, davolash, profilaktikasi. Ekssudativ perikardit - etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinikasi. Tashxislash, differentsial tashxis, davolash, profilaktikasi.”**

Konstriktiv va ekssudativ perikarditlar - etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinikasi, tashxislash, qiyosiy tashxisi, davolash, profilaktikasi. O’tkir ekssudativ perikardit klinikasi, tashxislash, qiyosiy tashxisi. Yiringli va chirikli perikardit. O’tkir perikarditlarni davolashning umumiy printsiplari. Infektsion perikarditlarning

kechishi va davolashning o‘ziga xosliklari: bakterial, virusli, zamburugli va sil perikarditi. Infektsion perikarditlarning kechishi va davolashning o‘ziga xosligi. Yurak tamponadasi: etiologiyasi, patofiziologiyasi, klinikasi, gemodinamikasi, tashxislash (EKG, ExoKG, yurak kateterizatsiyasi), davolash taktikasi. Perikard bo‘shlig‘ida yallig‘lanish bilan bog‘liq bo‘limgan suyuqlik (gidroperikard, xemoperikard, gemoperikard, pnevmoperikard): etiologiyasi, klinik xususiyatlari, diagnostikasi, davolash va kuzatuv taktikasi.

**72-mavzu. “Perikarditni davolash. Perikardit oqibatlari. Perikardiotsentez texnikasi. Perikarditni jarroxlik yo‘li bilan davolash. O‘pka gipertenziyasi. O‘pka gipertenziyasi tasnifi. Birlamchi o‘pka gipertenziyasi. Ta’rifi. Etiologiyasi. Rivojlanish mexanizmlari. Klinikasi. Tashxislash va davolash”.**

Perikarditni turi va etiologiyasiga bog‘liq xolda davolash. Perikardit oqibatlarini bartaraf etish. Perikardiotsentez texnikasi. Perikarditni jarroxlik yo‘li bilan davolash. O‘pka gipertenziyasi. O‘pka gipertenziyasi tasnifi. Birlamchi o‘pka gipertenziyasi. Ta’rifi. Etiologiyasi. Rivojlanish mexanizmlari. Klinikasi. Tashxislash va qiyosiy tashxislash. Zamonaviy davolash tamoyillari.

**73-mavzu. “Birlamchi va ikkilamchi o‘pka gipertenziyasi. Ta’rifi. Etiologiyasi. Rivojlanish mexanizmlari. Klinikasi. Tashxislash va qiyosiy tashxislash. Zamonaviy davolash tamoyillari. Prognozi. Profilaktikasi”.**

Birlamchi va ikkilamchi o‘pka gipertenziyasi ta’rifi, etiologiyasi, rivojlanish mexanizmlari, klinikasi, gemodinamik o‘zgarishlar. Birlamchi va ikkilamchi o‘pka gipertenziyasini tashxislashga zamonaviy yondoshish. Qiyosiy tashxislash. O‘pka gipertenziyalı bemorlarni kuzatish va tashxislash borasida tavsiyalar. Kechishi. Davolash standartlari. Kasallik oqibati.

**74-mavzu. “O‘pkali yurak. Tasnifi. Klinika. Tashxislash va qiyosiy tashxislash. Davolash. Profilaktika va reabilitatsiya. O‘pka arteriyasi tromboemboliyasi. Epidemiologiyasi. Etiologiyasi va xavf omillari. Patogenezi. Klinik belgilari. Laborator-asbobiyl tashxislash”.**

O‘pka yuragi ta’rifi, etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinik manzarasi. laborator-asbobiyl tekshirishlar. O‘pka birlamchi kasalliklarini davolash: A) bronxlar o‘tkazuvchanligini yaxshilovchi preparatlar: klassifikatsiyasi, ta’sir mexanizmi; B) glyukokartikoidlar: ta’sir mexanizmi, qabul qilish yo‘llari, ko‘rsatmalar; O‘pka yuragi bilan og‘rigan bemorlarni davolashda yurak glikozidlari, diuretiklar, AAC ingibitorlari, AR blokatorlari, periferik vazodilatatorlar, kaltsiy antagonistlari, antikoagulyantlarni qo‘llash tartibi. O‘pka yuragini davolashning boshqa usullari: a) oksigenoterapiya; b) giperbarik oksigenatsiya; v) ekstrakorporal usullar. O‘pka-yurak va yurak yetishmovchiligi kiyosiy tashxisi. Kechishi va oqibati.

O‘ATEning epidemiologiyasi, etiologiyasi va xavf omillari. Patogenezi. O‘ATEdagi o‘zgarishlarning patofiziologiyasi; Klinik belgilari: massiv va submassiv O‘ATE, o‘pka arteriyasi mayda tarmoqlarining tromboemboliyasi, o‘pka infarkti, chuqr venalar trombozi, laborator-asbobiyl tashxislash: zaruriy va ko‘rsatma bo‘yicha tekshiruvlar.

**75-mavzu. “O‘pka arteriyasi tromboemboliyasi. Qiyosiy tashxislash. Davolash. O‘pka arteriyasi tromboemboliyasida rentgenendovaskulyar jarroxlik amaliyoti. Profilaktika. Infektsion endokardit. Etiologiyasi, rivojlanish**

**mexanizmlari, tasnifi, klinik va biokimyoviy tashxislash, katta va kichik tashxisiy mezonlari”.**

O’ATE ni quyidagi kasalliklar bilan qiyosiy tashxislash: o’tkir miokard infarkti, septik shok, yurak tamponadasi, perikardit, pnevmoniya, atelektaz. Davolash. O’pka arteriyasi tromboemboliyasida rentgenendovaskulyar jarroxlik amaliyoti. Profilaktika.

Infektsion endokardit. Etiologiyasi, rivojlanish mexanizmlari, tasnifi, klinik va biokimyoviy tashxislash, katta va kichik tashxisiy mezonlari.

IEning klinik belgilari: intoksikatsiya, isitma, tashqi belgilari, yurak va boshqa ichki a’zolarning zararlanishi, bo‘g‘im sindromi, tomirli a’soratlar, immunologik o‘zgarishlar.

**76-mavzu. “Infektsion endokarditning kechishi. Birlamchi va ikkilamchi infektsion endokarditlar klinik kechishining o‘ziga xosligi. Qariyalarda, narkomanlarda, protezlangan klapanli va yurak tug‘ma nuqsoni bo‘lgan bemorlarda kechish xususiyatlari. Infektsion endokarditning asoratlari. Infektsion endokardit va isitmada qiyosiy tashxislash”.**

Infektsion endokarditning kechishi. Birlamchi va ikkilamchi infektsion endokarditlar klinik kechishi, tashxisiy me’zonlari. Kariyalarda, narkomanlarda, protezlangan klapanli va yurak tug‘ma nuqsoni bo‘lgan bemorlarda IE ni kechish xususiyatlari. Tashxislash: umumklinik va bioximik tekshiruvlar, bakteriologik tekshiruvlar, ExoKG tashxisiy mezonlari. Infektsion endokarditning asoratlari. Infektsion endokardit va uzoq vaqt isitmalash bilan kechadigan boshqa kasalliklar bilan qiyosiy tashxislash. IE ni quyidagi kasalliklar bilan qiyosiy tashxislash: yukumli kasalliklar; qon kasalliklari; sistemali kasalliklar; revmatizm; vistserial zaxm; xavfli o‘smalar.

**77-mavzu. “Infektsion endokarditni davolash. Antibiotiklar bilan davolash sxemalari. Operativ davoga ko‘rsatmalar. Infektsion endokarditning birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi. Ichki a’zolar kasalliklarida YuQTT xolati. Endokrin kasalliklarida yurak-qon tomir tizimi xolati. Qandli diabet fonida yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini kechishi”.**

Infektsion endokarditni davolash. IE asoratlari. IEni davolashga asosiy yondoshuvlar. Antibiotiklar tasnifi. IEni davolashda qo‘llaniladigan turli antibiotiklarning ta’sir mexanizmi va spektri. Penitsillinga sezgir va nisbatan chidamli bo‘lgan IEini davolash. Yurakning xususiy va sun’iy klapanlarining stafilokokkli IEni davolash. Enterokokkli IEni davolash. NASEK guruhi tomonidan chaqirilgan IEni davolash. Infektsion endokarditni simptomatik davolash. Gormonal terapiya imkoniyatlari. Profilaktikasi: a) antibiotikoprofilaktikaga asos bo‘ladigan yurak kasalliklari va tadbirlar; b) og‘iz bo‘shlig‘i, nafas yo‘llari, qizilo‘ngachdagi tadbirlarda antibiotikoprofilaktika sxemasi; v) siydik-tanosil yo‘llari va me’d-a-ichak yo‘li dagi tadbirlarda antibiotikoprofilaktika sxemasi; g) yurak qopqoqchalarini protezlashda IE antibiotikoprofilaktikasi; IEda jarrohlik yo‘li bilan davolashga ko‘rsatmalar.

Gipotalamo-gipofizar tizim kasalliklari – akromegaliyada, Itsengo-Kushing kasalligida miokard zararlanishi va yurak yetishmovchiligi rivojlanishi xususiyatlari; AG rivojlanish mexanizmlari. Qiyosiy tashxislash. Klimakterik sindrom: kardialgik belgilarning klinik xususiyatlari. Qandli diabet: yurak- qon tomir tizimi zararlanishi o‘ziga xosliklari, diagnostikasi, qiyosiy tashxisi, davolashga zamonaviy

yondoshuvlar. Yurak, qon tomirlar tomonidan bo‘ladigan asoratlar. Asoratlar profilaktikasi.

**78-mavzu. “Endokrin kasalliklarida yurak-qon tomir tizimi xolati. Gipotireozda yurak-qon tomir tizimining o‘zgarishlari. Tireotoksik yurak. Nafas olish tizimi kasalliklarida yurak-qon tomir tizimining xolati. Biriktiruvchi to‘qima tizimli kasalliklarida yurak-qon tomir tizimi patologiyasi”.**

Qalqonsimon bez kasalliklarida - diffuz toksik bo‘qoqda, tugunli toksik bo‘qoqda, gipotireozda YuQTT da kuzatiladigan o‘zgarishlar. Tashxislash. Davolashga zamonaviy yondoshuvlar. Buyrak usti bezi kasalliklari – feoxromotsitomada, Konn sindromida yurak zararlanishining xususiyatlari.

Nafas olish tizimining o‘tkir va surunkali kasalliklarida yurak-qon tomir tizimining xolati. Tashxislash. Profilaktikasi. O‘tkir pnevmoniya. Dimlangan pnevmoniyanı yurak yetishmovchiligi fonida rivojlanishi va kechishi. Asoratlari. Krupoz pnevmoniya. Biriktiruvchi to‘qima tizimli kasalliklarida (tizimli qizil yugurdak, revmatoid artrit, sklerodermiya va b.) yurak-qon tomir tizimida kuzatiladigan o‘zgarishlar. Miokardning toksik zararlanish belgilari. Infarkt-pnevmoniyalar rivojlanish mexanizmlari, klinikasi, tashxislash.

**79-mavzu. “Buyrak kasalliklarida yurak-kon tomir tizimi xolati. Yurak qon-tomir kasalliklari bilan og‘igan bemorlarda surunkali buyrak kasalligini tashxislash. SBK davolashning tamoyillari. Oshqozon-ichak traktining zararlanishlarida yurak-qon tomir kasalliklarini davolash xususiyatlari. YuQT kasalliklarida dietologiya asoslari. Sog‘lom turmush tarzi tamoyillari”.**

